Аспекты здоровья и питания: влияние продукции животноводства на устойчивые и здоровые рационы .....	1070
<b>Нуриллаев Рахмат Ярашевич</b> , к.с.х.н., доцент	
Роль платежных систем в функционировании электронной коммерции .....	1075
<b>Бабаева Гузаль Яшиновна</b> , доцент кафедры	
Oilaviy biznes bo'yicha jahon amaliyoti tahlili .....	1081
<b>Toshpo'latov Murodulla Sobirjon o'g'li</b>	
Milliy iqtisodiyotda sanoat tarmog'ining tutgan o'rni.....	1086
<b>Jo'rayev Dilshod Maxmudjonovich</b>	
To'qimachilik sanoat korxonalarida marketing strategiyasi .....	1091
<b>Tillyaxodjayev Azizxon Aloxonovich</b> , iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)	
Mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda tashqi iqtisodiy savdoning ahamiyati.....	1095
<b>Ibodullayev Abror Axrorovich</b> , dotsent, <b>Gulov Ma'ruf G'ayrat o'g'li</b> , <b>Muxtorov Ilhom Avazjon o'g'li</b> , talabalar	
The Impact of Corporate Monopolies on Market Competition and Economic Health.....	1100
<b>Nimatullayev Khondamir Tursunboy ugli</b> , <b>Avazov Ilhom Ravshanovich</b>	



Проблемы и перспективы зеленой экономики в Республике Узбекистан.....	1104
<b>Тураева Адиба Икрамовна</b> , старший преподаватель кафедры	
Quantifying the Return on Investment for Businesses in Adopting Green Construction Practices .....	1109
<b>Gulsarakhon Muhammadyoqub kizi Ostonakulova</b> , DSc	
Ishlab chiqarish tafovutining markaziy bank monetar siyosati qarorlariga ta'siri.....	1117
<b>Duskobilov Umidjon Sharofiddinovich</b> , PhD	
Iqtisodiyotni globallashuvi sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlar barqarorligining nazariy metodologiyasini takomillashtirish.....	1122
<b>Kalandarova Nargiza Narimanovna</b> , PhD	
Aksiyadorlik jamiyatlarining fond birjalarida listingdan o'tish tartibi va mamlakatimiz amaliyoti.....	1128
<b>Narimonov Sayfullaxon Sunnatillo o'g'li</b> , tayanch doktorant	
Hududlar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda investitsiya jozibadorligini oshirishning nazariy jihatlari .....	1135
<b>Sunatullayeva Shaxnoza Xurshid qizi</b> , tayanch doktorant	
Kichik biznes uchun muqobil moliyalashtirish manbalari va vositalari: xorijiy tajriba.....	1142
<b>Xolikov Sarvar Xayitbayevich</b>	
Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda va sug'urta portfeli muvozanatida anderrayting xizmati .....	1147
<b>Sayfullo Mirzoyev</b> , mustaqil izlanuvchi	
O'zbekistonning elektron tijorat strategiyasi: xorijiy bozorlarda raqobat qilishning asosiy yo'llari.....	1153
<b>Baymuradov Shoxrux Maximovich</b> , PhD	
Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda marketingning roli.....	1158
<b>Eshmirzayev Faruddin Ilxomjonovich</b> , tayanch doktorant, <b>Salimova Zaxro Sobirjon qizi</b> , magistr	
Barqaror rivojlanish konsepsiyasini tadqiq qilish yondashuvlari tahlili.....	1164
<b>Xasanova Nasiba Nazar qizi</b> , tадqiqotchi	
Oziq-ovqat mahsulotlari bozorini rivojlantirishda marketing tadqiqotlari metodologiyasi .....	1170
<b>Meyliyeva Dilnoza Boboniyoq qizi</b>	
Концепция маркетинговой стратегии развития региона и ее теоретические основы.....	1176
<b>Холмуротова Диёрахон Ибрагимовна</b>	
Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatiga xalqaro kapital bozoridan molivaviy resurslar jalb qilish amaliyotining tahlili .....	1179
<b>Muydinov Shohruh Najmaddin o'g'li</b> , mustaqil izlanuvchi	
O'zbekistonda o'zini o'zi band qilishda xorijiy tajribalar va ulardan mamlakatimizda foydalanish masalalari...	1186
<b>Latipov Ashur Ali Rustam o'g'li</b> , tayanch doktorant	
Aholini ijtimoiy himoyalash tizimini takomillashtirish.....	1191
<b>Rajabboyev Muzaffar Erkaboyevich</b>	
Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashishda raqamli texnologiya vositalarining o'rni .....	1194
<b>Raxmonov Lochin To'xtamishovich</b> , mustaqil izlanuvchi	
Tijorat banklari o'rtasidagi raqobatni oshirish orqali fond bozorida ularning ishtirokini kengaytirishning muhim strategik yo'nalishlari .....	1199
<b>Yuldasheva Manzura Ollashkurovna</b>	



# TIJORAT BANKLARI O'RTASIDAGI RAQOBATNI OSHIRISH ORQALI FOND BOZORIDA ULARNING ISHTIROKINI KENGAYTIRISHNING MUHIM STRATEGIK YO'NALISHLARI



**Yuldoshova Manzura Ollashkurovna**  
Toshkent amaliy fanlar universiteti iqtisodiyot fakulteti  
“Tarmoqlar iqtisodiyoti” kafedrasi katta o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tijorat banklari o'rtasidagi raqobatni oshirish orqali fond bozorida ularning ishtirokini kengaytirishning muhim strategik yo'nalishlari ochib berilgan. Maqolada tijorat banklarini raqobat konsentratsiyasi mezonlari taklif etilib, ularning natijasi orqali fond bozorida banklarning aksiyalari narxi o'zgarishiga baho berilgan.

**Kalit so'zlar:** Raqobat, raqobat konsentratsiyasi, strategiya, funksiya, mezon, strategik maqsad, algoritm.

**Abstract:** This article reveals important strategic directions for expanding the participation of commercial banks in the stock market by increasing competition. The article proposes the criteria of competitive concentration of commercial banks and evaluates the changes in the price of shares of banks in the stock market through their results.

**Key words:** Competition, concentration of competition, strategy, function, criterion, strategic goal, algorithm.

**Аннотация:** В данной статье раскрываются важные стратегические направления расширения участия коммерческих банков на фондовом рынке за счет усиления конкуренции. В статье предложены критерии конкурентной концентрации коммерческих банков и оценены изменения цен акций банков на фондовом рынке по их результатам.

**Ключевые слова:** Конкуренция, концентрация конкуренции, стратегия, функция, критерий, стратегическая цель, алгоритм.

## KIRISH

AQSH va Yevropa Ittifoqi tomonidan O'zbekistonning kompaniya va banklariga nisbatan qo'llanilishi mumkin bo'lgan ikkilamchi sanksiyalar ehtimolining ortishi banklar faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi hamda tranzaksion xarajatlarning ortishiga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, tashqi geosiyosiy vaziyatning yanada keskinlashuvi oqibatida xalqaro tranzaksiyalarni amalga oshirishda tegishli komplayens risklari yuzaga kelishi mumkin. Bu esa banklarning barcha operatsiyalariga ta'sir o'tkazadi. Ta'kidlash joizki, "O'zbekistonda davlat qimmatli qog'ozlari kabi yuqori likvidli aktivlarning banklarning jami aktivlardagi ulushi juda past. Xususan, 2022-yil yakuniga ko'ra, tijorat banklarning qimmatli qog'ozlar portfeli jami aktivlarning 4,7 foizini tashkil qilgan. Bu esa, bank tizimi moliyaviy barqarorlik holati foiz stavkaning o'zgarishi hisobiga yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qimmatli qog'ozlar bozoridagi narxlarning tebranishlariga ta'sirchan emasligini ko'rsatmoqda"<sup>1</sup>.

AQSH va Yevropa moliyaviy tizimlarida yuzaga kelgan noaniqlik bir qator banklarning moliyaviy yo'qotishlarga uchrashiga olib keldi. Bu esa, moliyaviy bozorlarda tahlikha uyg'onishiga va tebranuvchanlikning oshishiga, investorlarda xatarga moyillikning pasayishiga va natijada ba'zi banklarning defoltga uchrashlariga sabab bo'ldi. Jumladan, "First Republic Bank. 2023-yil I chorak yakuniga ko'ra, AQSHning bank tizimidagi aktivlari bo'yicha 14-o'rinni egallagan First Republic Bank joriy yilning mart oyida sodir bo'lgan Silicon Valley va Signature banklarining qulashi ortidan omonatchilarning o'z mablag'larini qaytarib olganliklari sababli bankda qo'yilgan omonatlar joriy yil boshiga nisbatan 41 foizga qisqargan. E'tiborli tomoni, 2023-yil 9-mart kuni bank depozitlari 173,5 mlrd dollar atrofida bo'lgan. Ushbu ko'rsatkich 2023-yil 31-mart holatiga kelib, AQSHning eng katta 11 ta banklari tomonidan taqdim etilgan 30 mlrd dollarlik depozitlarni hisobga olganda 104,5 mlrd dollar-

1 [https://cbu.uz/upload/medialibrary/30a/ku4mkaxnxeb3h3w3c8risvrp4dcm33is/FSR\\_2022\\_Uz.pdf](https://cbu.uz/upload/medialibrary/30a/ku4mkaxnxeb3h3w3c8risvrp4dcm33is/FSR_2022_Uz.pdf)



gacha tushib ketgan. 2023-yilning 25 aprel holatiga kelib, katta miqdordagi depozitlarning qaytarib olinishi bank aksiyalari narxining yil boshiga nisbatan deyarli 90 foizgacha qulashiga olib keldi. 2023 yil mart oyida boshlangan banklarga bo'lgan ishonchning yo'qolishi va 2022-yil ma'lumotlariga ko'ra, First Republic Bank depozitlarining deyarli 2/3 qismi FDIC tomonidan sug'urta qilinmaganligi bank depozitlarining qaytarib olinishiga asosiy sabablar sifatida ko'rsatish mumkin”<sup>2</sup>.

Banklarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyatining umumiyligi strategiyasi turlarini ushbu bozordagi bank xatti-harakatlarning turiga standart yondashuvlardan foydalangan holda aniqlash, bir tomonidan, raqobat-dosh banklarning strategiyasini tushunishga, ikkinchi tomonidan, banklar strategiyasini ishlab chiqishga imkon beradi. Bugungi kunda banklar tomonidan olib borilayotgan siyosat raqobat bozorida o'z ustunligini ta'minlash bilan birga hamma sohada faoliyatini rivojlantirish hisoblanadi. Tijorat banklari o'rtasidagi raqobatni oshirish orqali banklar bozorida bank mahsulotlarini oshirish, sifatli xizmat va yangi servislarni joriy etishga erishish imkoniyati yaratiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Tijorat banklarida raqobatni kuchaytirish orqali fond bozoridagi faoliyatini yanada kengaytirish masalalari bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, bu borada asosiy e'tibor banklarning ushbu jarayonlarni amalga oshirishda ishlab chiqarayotgan strategiyasini qanchalik to'g'ri olib borilishi bilan baholanadi.

Ayrim tadqiqotchilar fikricha, "...muvaffaqiyatning asosiy omili bankning qimmatli qog'ozlar bozorida o'z strategiyasini tanlashidir. O'tkazilgan tahlillar strategiyaning quyidagi tendensiyalarini aniqladi. Eng yirik banklar faol strategiyani amalga oshirishni afzal ko'radilar. Kichik mintaqaviy banklar raqobat natijasida o'z faoliyatini qisqartiradi yoki muayyan faoliyat sohalaridan voz kechadi. Shu bilan birga, investitsiya banking o'z o'rnnini egallashga harakat qilayotgan kichik banklar segmenti shakllanmoqda" deb hisoblaydilar<sup>3</sup>.

A. R. Alaverdov ta'kidlaganidek, "bankning emissiya siyosatini boshqarishning strategik maqsadi qimmatli qog'ozlar chiqarishdan bank kapitalini doimiy ravishda o'sib borishini bankning moliyaviy barqarorligi va barqarorligi ta'minlashdan iborat, chunki aynan shu siyosat emissiyani ta'minlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi deb ta'kidlaydi"<sup>4</sup>.

Olib borilgan tadqiqotlarda fond bozori banklar faoliyati uchun muhim yo'nalishlardan biri sifatida qaraydilar. Jumladan, "..so'nggi yillarda fond bozorining shakllangan tarkibida tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi professional faoliyati ular faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalari va investitsiya faoliyatidan olingan daromadlari ularning foydalarini shakllantirishda salmoqli ulushga ega" deb izohlaydilar<sup>5</sup>.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tijorat banklari raqobat konsentratsiyasi orqali banklarning aksiyalar narxi o'zgarishlarini aniqlash imkonini berishi mumkin. Bunda, tijorat banklari raqobat konsentratsiyasi qiymati  $Rk \leq 0.5$  bo'lsa, aksiyalar narxi fond birjasidagi o'zgarishlarga to'g'ridan to'g'ri bog'langan bo'lib, ularni narxi oshib boradi. Agar, raqobat konsentratsiyasi qiymati  $0,51 < Rk \leq 0,8$  bo'lsa, aksiyalar narxi fond birjasidagi o'zgarishlarga o'zaro nomutanosiblikda bo'lib, ularni narxi keskin o'zgarib to'radi. Agar, raqobat konsentratsiyasi qiymati  $0,81 < Rk \leq 1$  bo'lsa, aksiyalar narxi fond birjasidagi o'zgarishlarga teskari bog'lanishga ega bo'lib, ularni narxi tushib ketadi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tijorat banklari o'rtasidagi raqobatni kuchaytirish orqali banklar bozoridagi xizmat ko'rsatish tizimini o'zgartirish, yangi texnologiyalar asosida turli bank servislarni mijozlarga taqdim etish hamda yangi bank mahsulotlari ishlab chiqish asosida banklarni daromadini oshirish, qimmatli qog'ozlar bozoridagi operatsiyalarni samaradorligini oshirish orqali ularning aksiyalarini narxi barqarorligini ta'minlash masalalarini yechimini topish mumkin bo'ladi. Tijorat banklari o'rtasidagi raqobat konsepsiysi turli omillar o'rtasidagi o'zaro iqtisodiy ko'rsatkichlarni umumlashtirish orqali ishlab chiqilgan ma'lum mezonlar asosida baho beriladi. Ammo keyingi yillarda turli daramadagi iqtisodiy inqirozlar, ijtimoiy o'zgarishlar hamda siyosiy holatlardan kelib chiqib, banklar bozoridagi raqobatni baholash mezonlari ko'zlangan maqsadni amalga oshirish imkonini bermayapti. Shuning uchun hozirgi kunda banklar bozoridagi raqobatni baholashda "banklar raqobat konsentratsiyasi" mezonlaridan foydalanish taklif etiladi.

2 [https://cbu.uz/upload/medialibrary/30a/ku4mkaxnxeb3h3w3c8risvrp4dcm33is/FSR\\_2022\\_Uz.pdf](https://cbu.uz/upload/medialibrary/30a/ku4mkaxnxeb3h3w3c8risvrp4dcm33is/FSR_2022_Uz.pdf)

3 С. В. Якунин. Типы стратегий банка на рынке ценных бумаг 19 (322) - 2013 <https://cyberleninka.ru/article/n/tipy-strategiy-banka-na-rynke-tsennyyh-bumag>

4 Алавердов А. Р. Стратегический менеджмент в банке: учеб. пособие. М.: МЭСИ, 1999. С. 36.

5 <https://cyberleninka.ru/article/n/rol-i-deyatelnost-kommercheskih-bankov-na-fondovom-rynke?ysclid=liyk0na3mp89533686>



Ko'plab olib borilgan tadqiqotlarda uchta muhim ko'rsatkichlarni ta'sir darajasi tahlil qilingan. Bularga, "bank konsentratsiyasi-bank raqobati-moliyaviy barqarorlik". Ushbu ko'rsatkichlarni bir-biriga ta'sirini oshib berish orqali umumiy xulosalar shakkantirilgan. Jumladan, "moliyaviy bozorlardagi munosabatlar assimetrik ma'lumotlar, tarmoq tashqi ta'sirining mavjudligi va (yo'q) kommutatsiya xarajatlari bilan tavsiflanadi. Bozorga kirishdagi bu ziddiyatlar va to'siqlar nima uchun moliya bozorlaridagi bozor mexanizmi boshqa bozorlardagi kabi ishlamasligi mumkinligini" tushuntiradi<sup>6</sup>.

Biz tomonimizdan taklif etilayotgan banklar raqobat konsentratsiyasi mezonlari quyidagicha:

Bunda, tijorat banklari raqobat konsentratsiyasi qiymati bo'lsa, aksiyalar narxi fond birjasidagi o'zgarish-larga to'g'ridan to'g'ri bog'langan bo'lib, ularni narxi oshib boradi. Agar, raqobat konsentratsiyasi qiymati  $0,51 < Rk \leq 0,8$  bo'lsa, aksiyalar narxi fond birjasidagi o'zgarishlarga o'zaro nomutanosiblikda bo'lib, ularni narxi keskin o'zgarib to'radi. Agar, raqobat konsentratsiyasi qiymati  $0,81 < Rk \leq 1$  bo'lsa, aksiyalar narxi fond birjasidagi o'zgarishlarga teskari bog'lanishga ega bo'lib, ularni narxi tushib ketadi.

Bank raqobat konsentratsiyasi formulasi quyidagicha ko'rinishda ifodalab olamiz:

$$BRK = \{f(x_1); f(x_2); f(x_3); \dots f(x_6)\} \quad (1)$$

Bu yerda,  $f(x_1)$  funksiya bankni aktivlariga ta'sir qiluvchi omillar bo'lib, ularning umumiy harakatlanish chegarasi  $\{0; 1\}$  oraliqda bo'ladi. Ushbu ko'rsatkichning qiymati qanchalik 0 ga yaqin bo'lsa, bank aktivlari raqobat bozorida hisoblanadi. Aksincha, agar 1 ga yaqinroq bo'lsa, bank aktivlariga ta'sir qiluvchi omillar salbiy oqibatlarni yuzaga keltiradi. Natijada, bankning aktivlari raqobat bozorida kuchsiz hisoblanadi.

Ushbu funksiyani ijobji holatda bo'lishida quyidagi omillarga bog'liq bo'ladi. Jumladan, pul mablag'lari va ularning ekvivalentligi (PEM), boshqa bankdag'i mablag'lari (BBM), mijozlarga berilgan kreditlar va avanslar (MKA), amortizatsiya qilingan qiymat bilan ko'rsatilgan investitsiya qimmatli qog'ozlar (IQQ), boshqa umumiy daromadlar orqali haqqoniy qiymatga baholangan moliyaviy aktivlar (MA), qo'shma korxonalarga investitsiyalar (QKI), asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar (AVNA), kechiktirilgan soliq aktivlari (KSA), sug'urta aktivlari (A), boshqa aktivlar (BA) hamda sotish uchun mo'ljallangan uzoq muddatli aktivlar (O'MA).

Ushbu funksiyaning umumiy formulasi quyidagicha bo'ladi:

$$f(x_1) = \frac{MA+AVNA+KSA+BA+UMA}{PME+BBM+MKA+IQQ+QKI} \quad (2)$$

$f(x_2)$  funksiya bankni majburiyatlariga ta'sir qiluvchi omillar bo'lib, ularning umumiy harakatlanish chegarasi  $\{0; 1\}$  oraliqda bo'ladi. Ushbu ko'rsatkichning qiymati qanchalik 0 ga yaqin bo'lsa, bank majburiyatlar raqobat bozorida hisoblanadi. Aksincha, agar 1 ga yaqinroq bo'lsa, bank majburiyatlariga ta'sir qiluvchi omillar salbiy oqibatlarni yuzaga keltiradi. Natijada, bankning majburiyatlar raqobat bozorida kuchsiz hisoblanadi. Ushbu funksiyani ijobji holatda bo'lishida quyidagi omillarga bog'liq bo'ladi.

Jumladan, boshqa banklarning mablag'lari (BBM), mijozlarning mablag'lari (MM), chiqarilgan qarz qimmatli qog'ozlari (QQQ), boshqa qarz mablag'ari (BQM), kechiktirilgan soliq majburiyatlar (KSM), sug'urta majburiyatlar (SM), boshqa majburiyatlar (BM), subordinar qarz (SQ).

Ushbu funksiyaning umumiy formulasi quyidagicha bo'ladi:

$$f(x_2) = \frac{KSM+SM+BM+SQ}{BBM+MM+CHQQQ+BQM} \quad (3)$$

$f(x_3)$  funksiya bankni sof foizli daromadiga ta'sir qiluvchi omillar bo'lib, ularning umumiy harakatlanish chegarasi  $\{0; 1\}$  oraliqda bo'ladi. Ushbu ko'rsatkichning qiymati qanchalik 0 ga yaqin bo'lsa, sof foizli daromad raqobat bozorida hisoblanadi. Aksincha, agar 1 ga yaqinroq bo'lsa, sof foizli daromadiga ta'sir qiluvchi omillar salbiy oqibatlarni yuzaga keltiradi. Natijada, bankning sof foizli daromadi raqobat bozorida kuchsiz hisoblanadi. Ushbu funksiyani ijobji holatda bo'lishida quyidagi omillarga bog'liq bo'ladi.

Komission daromadlar (KD), komission xarajat (KX), chet el valyutasini baholashdan olingan sof foydas (OSF), chet el operatsiyalaridan olingan sof foya (CHEVBOSF), sug'urta operatsiyalaridan olingan sof daromad (SOSD), sug'urta operatsiyalari bo'yicha xarajatlar (SOX), sug'urta zaxiralarining o'zgarishi (SZO'), qabul qilingan dividendlar (QQD), boshqa operatsion daromadlar (BOD), boshqa aktivlarning qadrsizlanishi bo'yicha zaxira (AQZ), sotish uchun mo'ljallangan uzoq muddatli aktivlarning qadrsizlanishi uchun zaxirani tiklash (ZT), ma'muriy va boshqa operatsion xarajatlar (MOX), qo'shma korxonalardagi zarar o'lishi (QKZU).

Ushbu funksiyaning umumiy formulasi quyidagicha bo'ladi:

$$f(x_3) = \frac{KX+SOX+SZU+AQZ+ZT+MOX+QKZU}{KD+CHVBOSF+OSF+SOSD+QQD+BOD} \quad (4)$$

$f(x_4)$  funksiya qiymati foizli xarajatlarni/ foizli daromadlarga nisbatli qiymati asosida hisoblanadi. Ularning umumiy harakatlanish chegarasi  $\{0; 1\}$  oraliqda bo'ladi. Ushbu ko'rsatkichning qiymati qanchalik 0 ga yaqin

<sup>6</sup> Caminal, R. and Matutes, C. (2002), Market power and banking failures, International Journal of Industrial Organization, vol. 20, 1341-1361



bo'lsa, ushbu ko'rsatkich raqobat bozorida hisoblanadi. Aksincha, agar 1 ga yaqinroq bo'lsa, ushbu qiymatga ta'sir qiluvchi omillar salbiy oqibatlarni yuzaga keltiradi. Natijada, bankning ushbu ko'rsatkich bo'yicha raqobat bozorida kuchsiz hisoblanadi.

$f(x_5)$  funksiya qiymati shaxsiy kapital qiymati asosida hisoblanadi. Ularning umumiylar harakatlanish chegarasi {0; 1} oraliqda bo'ladi. Ushbu ko'rsatkichning qiymati qanchalik 0 ga yaqin bo'lsa, ushbu ko'rsatkich raqobat bozorida hisoblanadi. Aksincha, agar 1 ga yaqinroq bo'lsa, ushbu qiymatga ta'sir qiluvchi omillar salbiy oqibatlarni yuzaga keltiradi. Natijada, bankning ushbu ko'rsatkich bo'yicha raqobat bozorida kuchsiz hisoblanadi.

Ushbu funksiyani ijobiy holatda bo'lishida quyidagi omillarga bog'liq bo'ladi.

Aksiyadorlik kapitali (AK), taqsimlanmagan foyda (TF), boshqa umumiylar daromadlar hisobidan haqqoniy qiymat orqali baholangan qimmatli qog'ozlar vositalarini qayta baxolash zaxirasi (QBZ) hamda nazorat qilinmaydigan ishtirok etish ulushlari (IEU)

Ushbu funksianing umumiy formulasi quyidagicha bo'ladi:

$$f(x_5) = \frac{TF + QBZ + IEU}{AK} \quad (5)$$

funksiya qiymati moliyaviy faoliyatdan olingan pul mablag'lari qiymati asosida hisoblanadi. Ularning umumiylar harakatlanish chegarasi oraliqda bo'ladi. Ushbu ko'rsatkichning qiymati qanchalik 0 ga yaqin bo'lsa, ushbu ko'rsatkich raqobat bozorida hisoblanadi. Aksincha, agar 1 ga yaqinroq bo'lsa, ushbu qiymatga ta'sir qiluvchi omillar salbiy oqibatlarni yuzaga keltiradi. Natijada, bankning ushbu ko'rsatkich bo'yicha raqobat bozorida kuchsiz hisoblanadi.

Ushbu funksiyani ijobiy holatda bo'lishida quyidagi omillarga bog'liq bo'ladi.

Boshqa banklardan qarz mablag'lari tushumlari (QMT), boshqa banklardan olingan qarz mablag'lari qaytarish (QM), boshqa qarz mablag'lari tushumlari (BQMT), boshqa olingan qarz mablag'lari qaytarish (BOQM), chiqarilgan qarz qimmatli qog'ozlardan tushgan mablag'lar (QQTM), subordinar qarzni qaytarish (SQQ), subordinar qarzdan tushgan mablag'lar (SQT), oddiy aksiyalar chiqarilishidan bo'lgan tushumlar (OACHBT) hamda to'langan dividendlar (TD).

Ushbu funksianing umumiy formulasi quyidagicha bo'ladi:

$$f(x_6) = \frac{QM + BOQM + SQ + TD}{QMT + BQMT + QQTM + SQT + OACHBT} \quad (6)$$

Yuqoridagi formulalardan kelib chiqib raqobat konsentratsiyasini aniqlash funksiyasi quyidagicha bo'ladi:

$$BRK = \frac{f(x_1) + f(x_2) + f(x_5)}{f(x_2) + f(x_4) + f(x_6)} \quad (7)$$

Olingan formulalar asosida "O'zsanoatqurilishbank" va "Agrobank" larni 2020-2022-yillar uchun raqobat konsentratsiyasini natijasi orqali, ularning aksiyalarini narxini barqarorligini tahlil qilamiz.

"O'zsanoatqurilishbank" 2020-yildagi ma'lumotlari asosida yuqorida berilgan formulalar asosida hisoblaymiz<sup>7</sup>:

$$f(x_1) = \frac{MA + AVNA + KSA + BA + UMA}{PME + BBM + MKA + IQQ + QKI} = \frac{38024 + 747232 + 167619 + 376520 + 27355}{5601186 + 1859192 + 38959958 + 540222 + 993} = 0,0295$$

$$f(x_2) = \frac{KSM + SM + BM + SQ}{BBM + MM + CHQQ + BQM} = \frac{0 + 128627 + 44887 + 0}{1496004 + 11616958 + 3273048 + 25683457} = 0,004435$$


$$f(x_3) = \frac{KX + SOX + SZU + AQZ + ZT + MOX + QKZU}{KD + CHVBOSF + OSF + SOOD + QOD + BOD} = \frac{81416 + 17713 + 26103 + 7233 + 790447 + 12}{401784 + 100467 + 72569 + 43444 + 5477 + 29773} = 0,32$$

$$f(x_4) = \frac{1667535}{3289632} = 0,506906 \quad f(x_5) = \frac{TF + QBZ + IEU}{AK} = \frac{1427469 + 13384 + 0}{4640011} = 0,310528$$

$$f(x_6) = \frac{QM + BOQM + SQ + TD}{QMT + BQMT + QQTM + SQT + OACHBT} = \frac{46122 + 6488852 + 80000 + 353788}{222218 + 13094718 + 168310 + 94400 + 0} = 0,26$$

$$BRK = \frac{f(x_1) + f(x_2) + f(x_5)}{f(x_2) + f(x_4) + f(x_6)} = \frac{0,0295 + 0,32 + 0,310528}{0,004435 + 0,506906 + 0,26} = 0,853607$$

<sup>7</sup> <https://sqb.uz/uz/for-investors/reports-and-presentations-uz/>



1-rasm: O'zsanoatqurilishbanki aksiyalar narxini o'zgarishi (2020-2022-yillar)

Xuddi shunday "Agrobank"ning 2020-yildagi ma'lumotlari asosida yuqorida berilgan formulalar asosida hisoblaymiz<sup>8</sup>:

$$f(x_1) = \frac{MA + AVNA + KSA + BA + UMA}{PME + BBM + MKA + IQQ + QKI} = \frac{45633 + 1112281 + 7844 + 229326 + 25290}{2989229 + 246594 + 24868630 + 1426797 + 51310} = 0,048$$

$$f(x_2) = \frac{KSM + SM + BM + SQ}{BBM + MM + CHQQQ + BQM} = \frac{11342 + 70115 + 35046 + 214428}{2560842 + 9444823 + 88059 + 13499444} = 0,001293$$


$$f(x_3) = \frac{KX + SOX + SZU + AQZ + ZT + MOX + QKZU}{KD + CHVBOSF + OSF + SOOD + QOD + BOD} = \frac{130486 + 49484 + 14317 + 10169}{327023 + 15717 + 4502 + 49484 + 27393 + 993990} = 0,14$$

$$f(x_4) = \frac{1642213}{2912074} = 0,563932$$

$$f(x_5) = \frac{TF + QBZ + IEU}{AK} = \frac{1412 + 115 + 4882 + 142435}{4932829} = 0,030174$$

$$f(x_6) = \frac{QMQ + BOQM + SQ + TD}{QMT + BQMT + QQTM + SQTM + OACHBT} = \frac{11317 + 9872819 + 9104}{514767 + 100268 + 15845766} = 0,601018$$

$$BRK = \frac{f(x_1) + f(x_3) + f(x_5)}{f(x_2) + f(x_4) + f(x_6)} = \frac{0,222383}{1,177881} = 0,1888$$



2-rasm: Agrobank aksiyalar narxini o'zgarishi (2020-2022-yillar)

8 <https://agrobank.uz/uz/shareholders-and-investors/audit>



Olingen ma'lumotlar asosida qolgan yillar uchun ham banklarning raqobat konsentratsiyasini hisoblab topamiz. Natijada quyidagi ko'rsatkichlarga ega bo'lamiz:


**1-jadval: Tijorat banklari raqobat konsentratsiyasi natijalari<sup>9</sup>**

№	Tijorat banklari	Yillar		
		2020	2021	2022
1	O'zsanoatqurilishbank	0,854	0,802	0,879
2	Agrobank	0,188	0,396	0,287

Olingen natilarni tahlil qiladigan bo'lsak, taklif etilgan mezonlar bo'yicha O'zsanoatqurilishbank ma'lumotlari raqobat konsentratsiyasi qiymati bo'lib, aksiyalar narxi fond birjasidagi o'zgarishlarga teskari bog'lanishga ega bo'lib, ularni narxi tushib ketganini rasmda ko'rish mumkin. Agrobank ko'rsaktichlari, raqobat konsentratsiyasi qiymati bo'lib, aksiyalar narxi fond birjasidagi o'zgarishlarga to'g'ridan to'g'ri bog'langan bo'lib, ularni narxi oshib borganini ko'rish mumkin.

Yuqorida holatlardan kelib chiqqan holda tijorat banklarining fond bozorida ularning ishtirokini kengaytirishning muhim strategik yo'naliishlari sifatida quyidagilarni keltirib o'tish mumkin.

**2-jadval: Tijorat banklarida strategik boshqaruv va rejalashtirish jarayonlari orqali fond bozorida ishtirokini kengaytirish algoritmi<sup>10</sup>**



Yuqorida jadval ma'lumotlari asosida tijorat banklarini fond bozorida ishtirok etishini kengaytirishda strategik boshqaruv jarayonlarini amalga oshirishda asosiy e'tibor ishlab chiqilayotgan strategiya drayverlariga e'tibor qaratish zarur bo'ladi. Strategiya drayverlarini ishlab chiqishdan maqsad tijorat banklarini raqobat bozoridagi holatidan kelib chiqib uning boshqa bozorlarga ishtirok etishiga baho beriladi. Bunda, banklarning raqobat bozoridagi holati qanchalik kuchli bo'lsa, ularning strategiya drayverlari ham kuchli bo'ladi. Ushbu 1 chi bosqichdagi mexanizm kuchli bo'lsa, ularning 2 bosqichdagi biznes marketing qaror qabul qilish darajasi yuqori bo'ladi. Strategiya drayverlari bir-birini to'ldirib borish ya'ni uzlusiz zanjir holatida bo'lishi ma'lum bir oraliq uchun ishlab chiqilayotgan strategiya konsepsiyasini mustahkam bo'lishini ta'minlaydi. Bunda strategiya konsepsiysi "Bank-biznes marketing-qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar" algoritmini to'g'ri tashkil etishga olib keladi. Rejalashtirish siklini muhim yo'naliishi bu dasturlar hisoblanadi. Tijorat banklari tomonidan ishlab chiqilgan strategiya konsepsiyasini asosida quyilgan vazifani amalga oshirish dasturlari ishlab chiqiladi. Ushbu dasturlar barcha qaror qabul qilish darajalari bilan uzviy bog'langan bo'ladi. Keyingi bosqichda biz tijorat banklari rejalashtirish siklini fond bozori bilan bevosita bog'lanish algoritmini ko'rish mumkin. Bunda ham fond bozori qaror qabul qilish darajalari bilan uzviy bog'liq bo'lib, ulardag'i har bir bosqichda ushbu algoritmnинг harakati o'zgarib turadi. Tijorat banklarini raqobat bozoridagi imidjini yuqori bo'lishi ushbu taklif etilayotgan rivojlanish sikli "strategiya drayverlari-strategiya-dasturlar-fond bozori" algoritmi bilan to'g'ridan to'g'ri bog'lanishga ega bo'ladi.

Shuni alohida ta'kidlash zarurki tijorat banklarida strategik maqsadlar qanchalik to'g'ri tashkil etilsa, uning fond bozoridagi ishtiroki shunchalik mukammal bo'lishi hamda ularning aksiyalari narxi barqaror bo'lishi ta'minlaydi.

9 Muallif hisob-kitobi asosida tuzilgan.

10 O'rganilgan adabiyotlar asosida muallif tavsiyasi.



Strategik maqsadlarni amalga oshirish algoritmini quyidagicha amalga oshirish taklif etiladi:



3-rasm: Strategik maqsadlarni amalga oshirish algoritmi<sup>11</sup>

Ushbu strategiya maqsadlarini amalga oshirish algoritmida tijorat banklari e'tibor berishi zarur bo'ladigan muhim yo'nalishlar bu ichki va tashqi muhim faoliyati hisoblanadi. Hozirgi kunda dunyo meqeyosida bo'lib turgan turli iqtisodiy va siyosiy jarayonlarni o'zgarishi bu bevosita har qanday strategiyaga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu esa qo'yilgan maqsaddan chetga chiqish va oqibatda turli omillarning ta'siri natijasida inqirozga olib keladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tahliliy ma'lumotlar asosida quyidagi xulosalar shakllantirildi.

1. Tijorat banklarini raqobat konsentratsiyasi mezonlari ishlab chiqildi. Jumladan, tijorat banklari raqobat konsentratsiyasi qiymati  $Rk \leq 0.5$  bo'lsa, aksiyalar narxi fond birjasidagi o'zgarishlarga to'g'ridan to'g'ri bog'langan bo'lib, ularni narxi oshib boradi. Agar, raqobat konsentratsiyasi qiymati  $0,51 < Rk \leq 0,8$  bo'lsa, aksiyalar narxi fond birjasidagi o'zgarishlarga o'zarlo nomutanosiblikda bo'lib, ularni narxi keskin o'zgarib to'radi. Agar, raqobat konsentratsiyasi qiymati  $0,81 < Rk \leq 1$  bo'lsa, aksiyalar narxi fond birjasidagi o'zgarishlarga teskari bog'lanishga ega bo'lib, ularni narxi tushib ketadi.
2. Bank raqobat konsentratsiyasi formulasini ishlab chiqildi va uni ko'rinishi quyidagicha ifodalash taklif etildi:

11 Muallif ishlanmasi.



$BRK = \{f(x_1); f(x_2); f(x_3); \dots f(x_6)\}$  raqobat konsentratsiyasini aniqlash funksiyasi quyidagicha bo'ladi:

$$BRK = \frac{f(x_1) + f(x_3) + f(x_5)}{f(x_2) + f(x_4) + f(x_6)}$$

3. “O’zsanoatqurilishbank” va “Agrobank” larni 2020-2022-yillar uchun raqobat konsentratsiyasini natijasi orqali, ularning aksiyalarini narxini barqarorligini tahlil qilindi va quyidagi natijalarga erishildi: taklif etilgan mezonlar bo'yicha O’zsanoatqurilishbank ma'lumotlari raqobat konsentratsiyasi qiymati  $0,81 < Rk \leq 1$  bo'lib, aksiyalar narxi fond birjasidagi o'zgarishlarga teskari bog'lanishga ega bo'lib, ularni narxi tushib ketganini hamda Agrobank ko'saktichlari, raqobat konsentratsiyasi qiymati  $Rk \leq 0,5$  bo'lib, aksiyalar narxi fond birjasidagi o'zgarishlarga to'g'ridan to'g'ri bog'langan bo'lib, ularni narxi oshib borgani aniqlandi.
4. Strategik maqsadlarni amalga oshirish algoritmi taklif etildi. Tijorat banklarini raqobat bozoridagi imidjini yuqori bo'lishi ushbu taklif etilayotgan rivojanish sikli “strategiya drayverlari-strategiya-dasturlar-fond bozori” algoritmi bilan to'g'ridan to'g'ri bog'lanishga ega bo'lishi asoslandi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Caminal, R. and Matutes, C. (2002), Market power and banking failures, International Journal of Industrial Organization, vol. 20, 1341-1361.
2. Алавердов А. Р. Стратегический менеджмент в банке: учеб. пособие. —М.: МЭСИ, —1999. —С. 36.
3. Якунин С. В.. Типы стратегий банка на рынке ценных бумаг 19 (322) —2013 <https://cyberleninka.ru/article/n/tipy-strategiy-banka-na-rynke-tsennyyh-bumag>.
4. <https://agrobank.uz/uz/shareholders-and-investors/audit>
5. [https://cbu.uz/upload/medialibrary/30a/ku4mkaxnxeb3h3w3c8risvrp4dcm33is/FSR\\_2022\\_Uz.pdf](https://cbu.uz/upload/medialibrary/30a/ku4mkaxnxeb3h3w3c8risvrp4dcm33is/FSR_2022_Uz.pdf).
6. <https://cyberleninka.ru/article/n/rol-i-deyatelnost-kommercheskih-bankov-na-fondovom-rynke?ysclid=liyk0na3mp89533686>.
7. <https://sqb.uz/uz/for-investors/reports-and-presentations-uz>

# Yashi

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2023. № 10**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Telefon: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

### Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.

